



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 24-fevral

№ 1999

O‘zbekiston Respublikasi ayrim sudlariga sudyalarni tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining 69-72-moddalari va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq:

G‘afurov Nodirjon Narzullayevich – sudyalik vakolati muddati davriga Samarqand viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Tayloq tumanlararo sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Xorazm viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Urganch tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Xushvakov Azamat Ibragimovich – sudyalik vakolati muddati davriga Qashqadaryo viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Qarshi tumanlararo sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Qashqadaryo viloyat ma‘muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Nazirov Umidjon Inomjonovich – sudyalik vakolati muddati davriga Farg‘ona viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Qo‘qon tumanlararo sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Andijon viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Xo‘jaobod tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Temirov Azamat Tairjonovich – sudyalik vakolati muddati davriga Farg‘ona viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Marg‘ilon tumanlararo sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Andijon viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Bo‘ston tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Komiljonov Feruz Komiljonovich – sudyalik vakolati muddati davriga Buxoro viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Buxoro tumanlararo sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Chirchiq tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Xamrayeva Adolat Jabborovna – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Angren shahar sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Qashqadaryo viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Yakkabog‘ tuman sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

Abdullayev Nurbek Rayimberdiyevich – sudyalik vakolati muddati davriga Qashqadaryo viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Yakkabog' tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Qashqadaryo viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan ozod qilinsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov